



## MAKTABGACHA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor  
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini  
oshirish instituti “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrasini mudiri  
Raximova Surayyo Saloxiddinova*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226663>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va uning samaradorlikka ta'siri yoritilgan. Raqamli vositalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri hamda mustaqil o'rganish qobiliyatini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, interaktiv ta'lim platformalari, multimedia vositalari va onlayn resurslar orqali ta'lim sifatini oshirish usullari muhokama qilingan. Maqolada raqamli texnologiyalar yordamida bolalarning bilim va malakasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, interaktiv ta'lim, kognitiv rivojlanish, multimedia, ta'lim samaradorligi, integratsiya, kreativ fikrlash, virtual reallik, animatsiyali o'yinlar.

Bugungi davrda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlarning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar integratsiyasi orqali bolalarning bilim olish jarayoni qiziqarli va ta'sirchan shaklda tashkil etilishi kuzatiladi. Hozirgi axborot asrida, har qanday davlatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalar muhim o'rin egallagan bir davrda, jamiyat yanada barqaror rivojlanishi va taraqqiyotga erishishi uchun raqamli bilim va axborot texnologiyalariga e'tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, dunyoning ko'pgina davlatlarida, ayniqsa rivojlangan va yuqori darajada rivojlanayotgan mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot anchagina tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta'lim jarayoniga ta'siri va ularning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar bolalarning qiziqishini oshirish, interaktiv ta'lim muhitini yaratish va ta'lim samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi. Interaktiv doskalar, multimedia platformalar, mobil ilovalar orqali bolalar nafaqat bilim oladilar, balki kreativ fikrlash, mustaqil izlanish va muloqot qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Bundan tashqari, raqamli resurslar ta'lim jarayonini yangi, samarali va noan'anaviy shaklda tashkil etish imkonini yaratadi.

Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bolalarning ta'lim olish jarayonini osonlashtirish va ularning ijodiy hamda kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda quyidagi raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'limda keng qo'llanilmoqda:

Interaktiv doskalar va multimedia vositalari – bolalarning qiziqishini oshirish va ularning diqqatini uzoqroq saqlab turish uchun muhim vositalardan biri;

Ta'limiy mobil ilovalar va kompyuter o'yinlari – bolalarning individual rivojlanishini ta'minlash va ularning bilimni shaxsiylashtirilgan yondashuv asosida oshirish;

Virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalari – ta'lim jarayonini real hayotga yaqinlashtirish va bolalarda yangi tajribalar hosil qilish;

Onlayn ta'lim platformalari – ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda ta'lim jarayonini to'liq kuzatib borish imkonini yaratadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning ta'limda samaradorlikka erishishga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta'lim jarayonidagi muhim afzalliklaridan biri, bolalar uchun yoqimli va qiziqarli o'quv muhitini yaratishdir. Interaktiv



kontent va animatsiyali o'yinlar orqali bolalarning diqqat-e'tibori oshadi, ma'lumotlarni yanada oson o'zlashtiradilar.

Raqamli texnologiyalar bolalar uchun ta'limiy faoliyatlarni qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etishga yordam beradi. Animatsiyalangan darslar va video materiallar orqali bolalarga murakkab tushunchalarni osonroq tushuntirish imkoni mavjud.

Interaktiv ta'lim platformalari va mobil ilovalar bolalarda tafakkur qilish, xotira va diqqatni jamlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, multimedia kontentlar bolalarning tashxisiy va tahliliy qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali o'quv materiallarini qayta ko'rib chiqish va mashg'ulotlarni takrorlash imkoni mavjud. Bu esa bolalarning bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Zamonaviy raqamli vositalar bolalarni mustaqil bilim olishga yo'naltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular multimediali darslar, elektron kitoblar va onlayn resurslar orqali mustaqil o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Multimedia resurslari, elektron qo'llanmalar va mobil ilovalar bolalarga bilimni yanada interaktiv usulda o'zlashtirish imkonini beradi. Bolalar multimedia orqali yangi mavzularni vizual va audio formatda qabul qiladi, bu esa xotirani mustahkamlashga yordam beradi.

Onlayn platformalar va mobil ilovalar ota-onalarga bolalarining rivojlanishi haqida to'liq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Bu esa bolalarni ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlashni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli platformalardan foydalanish pedagoglar uchun ham samarali hisoblanadi. Ularga bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos o'quv rejalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tariqa, har bir bolaga alohida yondashuv ta'minlanadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar orqali ta'lim faoliyati avtomatlashtiriladi, buning natijasida pedagoglar uchun ta'lim materiallarini rang-barang yaratish, ishlab chiqish yengillashuviga erishiladi.

Ammo yana bir jihat borki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish jarayonida bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Eng asosiy muammolardan biri – barcha tashkilotlarning yetarlicha texnik vositalar bilan ta'minlanmaganidir.

Shuningdek, pedagoglarda raqamli vositalardan samarali foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga ham katta e'tibor qaratish lozim. Ushbu sohadagi muvaffaqiyatli amalga oshiriladigan loyihalar pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish va ularga zarur metodik qo'llanmalar taqdim etishni talab qiladi.

Bundan tashqari, raqamli ta'lim resurslarining sifati va xavfsizligi masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarga mo'ljallangan kontentlar ularning yosh xususiyatlariga mos kelishi, pedagogik va psixologik talablarga javob berishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi bolalarning ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda raqamli infratuzilmani takomillashtirish, pedagoglar malakasini oshirish va yuqori sifatli ta'lim kontentini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalarning sog'lig'i va psixologik holatini hisobga olgan holda, raqamli texnologiyalardan me'yoriy foydalanish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalarning samarali joriy etilishi maktabgacha ta'limni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa bolalarning ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga, ularning innovasion texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini oshirishga va kelajakda raqamli jamiyatga moslashishiga xizmat qiladi.

Ular bolalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini oshiradi, qiziqishini kuchaytiradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Shuning uchun tarbiyachilar va ota-onalar raqamli texnologiyalardan to'g'ri va me'yoriy foydalanishga e'tibor qaratishlari lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.J.Siddikov "O'zbekistonda raqamli iktisodiyot rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga doir yondashuvlar" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021.



2. To'raqulov U.X. “Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorgarligini takomillashtirish”. Ped. fan. fals. dokt. (PhD)..diss.-T., 2020.

3. To'raqulov U.X. “Raqamli texnologiyalar negizida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar negizida kasbiy faoliyatning uzluksiz metodik ta'minoti tizimini yaratish”. “Informatika i injenerniye texnologii” jurnali. № 2 (2023).